



NAVOIY VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra
dastlabki ma'lumot*




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Navoiy viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9 369,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **11,5 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1 434,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **114,6 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **7 935,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **111,0 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **521,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **124,3 %**) tashkil etdi.


O'sish sur'atlari, foizda



Tarkibiy qism, foizda



Asosiy tarkib, foizda






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

Navoiy viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9 369,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **111,5** % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **84,7** % kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **15,3** % yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

Navoiy viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 31,6 % ulush bilan 2 959,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Navoiy viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Tomdi tumani 0,7 % ulush bilan 61,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan Navoiy viloyatining Navoiy shahrida (**119,4 %**), Nurota tumani (**111,1 %**), Konimex tumanida (**110,9 %**) chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida qayd etildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	9 369,8	111,5	1 434,7	114,6	7 935,1	111,0
Navoiy sh.	2 959,3	119,4	1 165,2	130,8	1 794,1	113,0
Zarafshon sh.	902,6	109,3	45,6	140,1	857,0	108,0
G'ozg'on sh.	98,8	110,0	0,1	-	98,7	109,9
Konimex t.	245,7	110,9	5,3	100,8	240,4	111,2
Qiziltepa t.	1 034,0	108,2	12,8	78,9	1 021,2	108,7
Navbahor t.	529,8	108,8	64,8	126,6	465,0	106,7
Karmana t.	1 734,6	105,2	106,2	45,7	1 628,4	114,9
Nurota t.	330,3	111,1	6,5	114,8	323,8	111,1
Tomdi t.	61,2	106,9	0,4	54,5	60,8	107,6
Uchquduq t.	435,3	109,5	3,5	96,9	431,8	109,6
Xatirchi t.	1 038,2	110,0	24,3	183,9	1 013,9	109,0




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Yirik korxonalar




**Kichik biznes
va xususiy tadbirkorlik**

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **14,6 %** ga o'sdi va **1 434,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **15,3 %** ulushiga to'g'ri keldi.

Eng past ulushga ega hududlar, % da



Yirik korxonalar




**Kichik biznes
va xususiy tadbirkorlik**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **7 935,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **11,0 %** ga ko'paydi. Navoiy viloyati miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **84,7 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda**

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha G'ozg'on shahri (99,9 %), Tomdi (99,3 %), Uchquduq (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 15,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahrida (39,4 %), Navbahor (12,2 %), Karmana (6,1 %) tumanlarida kuzatildi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Yirik korxonalar






AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-oktabr oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **8 992,2** ming so'mni (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 9,3 % ga oshdi) tashkil etdi.


Hududlar kesimida ma'lumot (ming so'mda)

	Hajm, ming so'm	2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	8 992,2	109,3
Navoiy sh.	19 367,0	115,8
Zarafshon sh.	10 507,8	108,4
G'ozg'on sh.	10 974,7	107,6
Konimex t.	6 640,3	109,1
Qiziltepa t.	6 564,8	106,4
Navbahor t.	4 504,8	106,9
Karmana t.	12 983,3	102,1
Nurota t.	3 792,6	109,5
Tomdi t.	3 928,9	104,1
Uchquduq t.	11 277,7	107,5
Xatirchi t.	5 008,4	108,0

Eng yuqori hajmga ega hududlar



Eng past hajmga ega hududlar




* Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Navoiy shahri (**19 367,0** ming so'm), Karmana (**12 983,3** ming so'm) va Uchquduq (**11 277,7** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Xatirchi t. Navoiy sh. Karmana t.

Asosiy tarkib, foizda



Savdo hajmi va ulushi



Navoiy viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **521,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **24,3 %** ga oshdi. Shu jumladan, 1 bozor va 1 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **301,8** mlrd. so'mni, chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **219,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	521,3	124,3	301,8	120,0	219,5	130,8
Navoiy sh.	118,2	106,4	118,2	106,4	-	-
Zarafshon sh.	7,6	4,8 m.	7,6	4,8 m.	-	-
G'ozg'on sh.	-	-	-	-	-	-
Konimex t.	22,3	142,4	8,3	136,5	14,0	146,1
Qiziltepa t.	60,1	144,1	45,2	179,4	14,9	90,2
Navbahor t.	2,4	115,4	2,4	115,4	-	-
Karmana t.	146,5	135,6	14,3	144,5	132,2	134,7
Nurota t.	31,6	142,2	11,5	155,9	20,1	135,4
Tomdi t.	2,9	106,1	2,9	106,1	-	-
Uchquduq t.	13,2	2,2 m.	13,2	2,2 m.	-	-
Xatirchi t.	116,5	107,6	78,2	98,4	38,3	132,9

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **301,8** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **219,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari



DEHQON BOZORLARI SAVDO TOVAR AYLANMASI:

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida Navoiy viloyatining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **41,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**23,8** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.





CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI SAVDO TOVAR AYLANMASI: mlrd. so'm



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida Navoiy viloyatining barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **24,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **20,4** mlrd so'mni tashkil etdi.



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,8 %** ni tashkil etib, **260,1** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **10,4 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **88,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	260,1	110,4	29,4	101,6	230,7	111,6
Navoiy sh.	90,1	103,6	5,7	49,3	84,4	112,0
Zarafshon sh.	36,1	95,4	1,5	25,1	34,6	108,5
G'ozg'on sh.	1,1	110,2			1,1	110,2
Konimex t.	4,5	109,7			4,5	109,7
Qiziltepa t.	15,8	112,7			15,8	112,7
Navbahor t.	46,8	139,9	22,2	198,2	24,6	110,6
Karmana t.	29,9	109,9			29,9	110,7
Nurota t.	3,5	113,2			3,5	113,2
Tomdi t.	0,9	113,0			0,9	113,0
Uchquduq t.	12,5	113,2			12,5	113,2
Xatirchi t.	18,9	117,2			18,9	117,2



MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2021- yil

2022- yil


 Nodavlat mulk

 Davlat mulki

2021- yilning yanvar-oktabr oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **5,5 %** dan **0,3 %** ga kamaygan.


Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi **260,1** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **110,4%**) va mulkchilik shakllari bo'yicha **259,4** mlrd. so'm nodavlat mulkka (**99,7 %**) hamda **0,7** mlrd. so'm (**0,3 %**) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulk, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Navoiy viloyati	260,1	100,0	259,4	99,7	0,7	0,3
Navoiy sh.	90,1	34,6	89,4	99,2	0,7	0,8
Zarafshon sh.	36,1	13,9	36,1	100,0	-	-
G'ozg'on sh.	1,1	0,4	1,1	100,0	-	-
Konimex t.	4,5	1,7	4,5	100,0	-	-
Qiziltepa t.	15,8	6,1	15,8	100,0	-	-
Navbahor t.	46,8	18,0	46,8	100,0	-	-
Karmana t.	29,9	11,5	29,9	100,0	-	-
Nurota t.	3,5	1,3	3,5	100,0	-	-
Tomdi t.	0,9	0,3	0,9	100,0	-	-
Uchquduq t.	12,5	4,8	12,5	100,0	-	-
Xatirchi t.	18,9	7,4	18,9	100,0	-	-




ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda



Navoiy viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 491,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **26,3** % ga o'sdi. Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaragan -da **1 880,0** mlrd.so'mni tashkil qilgan, bu esa 2021- yilning mos davriga nisbatan **17,7** % ga oshgan. Navoiy viloyatida ushbu sektorning ulgurji savdodagi ulushi **75,5** % ni tashkil qilgan.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da

- 1 **Navoiy sh.** 39,3
- 2 **Karmana t.** 26,6
- 3 **Navbahor t.** 11,1






ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	2 491,5	126,3	611,4	163,2	1 880,1	117,7
Navoiy sh.	979,0	109,7	252,4	91,8	726,6	117,7
Zarafshon sh.	85,6	117,7	0,01	-	85,6	117,7
G'ozg'on sh.	6,1	117,7	-	-	6,1	117,7
Konimex t.	9,0	108,6	0,9	64,3	8,1	117,7
Qiziltepa t.	159,7	117,7	-	-	159,7	117,7
Navbahor t.	275,8	2,6 m.	233,9	3,3 m.	41,9	117,7
Karmana t.	662,7	116,3	24,5	89,9	638,2	117,7
Nurota t.	25,0	117,7	-	-	25,0	117,7
Tomdi t.	16,3	117,7	-	-	16,3	117,7
Uchquduq t.	53,4	117,7	-	-	53,4	117,7
Xatirchi t.	218,9	2,2 m.	99,7	-	119,2	117,7




MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi davlat mulkining ulushi **0,2 %** ni tashkil qildi. 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **2 491,5** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **2 487,7** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **3,8** mlrd.so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkini hali ham Karmana (**0,6 %**) tumanida saqlanib qolinganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Тел.: 79-223-50-43